



ZAYTUN NAVLARINI MORFO-BIOLOGIK VA QIMMATLI XO'JALIK BELGILARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLI NAVLARNI TANLOV SINOVINI O'TKAZISH.

Kimsanova Xolida A'zamovna

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti "Intensiv
sabzavotchilik, bog'dorchilik uzumchilik va issiqxona xo'jaliklari"
kafedrasida assistenti,

Toxirjonova Fotima Muzaffar qizi

Toxirjonova Zuxra Muzaffar qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Mevachilik
vauzumchilik ta'lim yo'nalishi, talaba.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8050138>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-June 2023 yil

Ma'qullandi: 15-June 2023 yil

Nashr qilindi: 17-June 2023 yil

KEY WORDS

Buning uchun, ma'lum
birlikdagi qog'oz sathi olinadi.
Masalan, 100 sm yoki 1dm (10
x 10 sm).

ABSTRACT

*O'rganilayotgan zaytun navlarining botanik –
morfologik belgilari aniqlandi, unda poyaning diametri,
bo'yining balandligi, birlamchi shoxlarning uzunligi,
barglarning bo'yi va eni (sm), rangi, gulining rangi, bir
shingildagi g'unchalarning soni (dona hisobida) aniqlab
chiqildi. Barg sathi "Mevali va rezavor mevali o'simliklar
bilan tajribalar o'tkazishda xisoblar va fenologik
kuzatuvlar metodika" si uslubida aniqlandi.*

Zaytun navlarining o'sish va rivojlanishi tajribada ekilgan zaytun navlarining o'sish, rivojlanish fazalari, ularda poyaning o'sishi, birlamchi va ikkilamchi yon shoxlarning uzunligi, yon shoxlarda barglar soni va bir dona bargning hosil bo'lishi vegetasiya davomida o'rganildi; bir dona bargning hosil bo'lishi uchun ketgan muddat, bargning eni hamda uzunligi navlar kesimida aniqlandi.

Tajribada zaytun navlari mevalarining mexanik tarkibi juda yirik, yirik, o'rta va kichik hajmlarda bo'lishi navlar kesimida sanash usulida aniqlandi.

1. Juda yirik meva 1kg. da 200 donagacha
2. Yirik meva 1kg. da 300 tagacha
3. O'rtacha meva 1kg. da 300 tadan ko'p
4. Kichik meva 1 kg.da 50 tadan kam

O'rganilayotgan zaytun navlarining botanik – morfologik belgilari aniqlandi, unda poyaning diametri, bo'yining balandligi, birlamchi shoxlarning uzunligi, barglarning bo'yi va eni (sm), rangi, gulining rangi, bir shingildagi g'unchalarning soni (dona hisobida) aniqlab chiqildi. Barg sathi "Mevali va rezavor mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda xisoblar va fenologik kuzatuvlar metodika" si uslubida aniqlandi.

Buning uchun, ma'lum birlikdagi qog'oz sathi olinadi. Masalan, 100 sm yoki 1dm (10 x 10 sm). Qog'ozni qirqib, shu sathni aniq tarozida tortib, og'irligi belgilandi. Xuddi shunday ikkinchi qog'ozga barg sathini aniqlash lozim bo'lgan barg yaxshilab qo'yilib, o'tkir qalam bilan atrofdagi qirralarning ustidan chizib rasmi tushiriladi. Qog'ozga tushirilgan bargning rasmi ehtiyotkorlik bilan qirqib olinadi. So'ng qog'ozdagi bargning rasmi tortilib, og'irligi

aniqlandi. Olingan raqamlar asosida tenglama tuzilib, bargning umumiy sathi aniqlandi.

Masalan, 100 sm^2 qog'ozning og'irligi 750 mg. Bargning rasmi chizilgan qog'ozning og'irligi 650 mg bo'lsa, tenglama quyidagicha tuziladi:

$$100 \text{ sm}^2 = 750 \text{ mg},$$

$$x = 650 \text{ mg, sm}^2$$

Bir yillik, ikki yillik va to'rt yillik zaytun daraxtlarida birlamchi va ikkilamchi novdalarning o'sish dinamikasi uch yil davomida kuzatildi. Ushbu kuzatuvlarni olib borish uchun ajratib olingan modul daraxtlarda har 30 kunda birlamchi, ikkilamchi novdalarning o'sishi dinamikasining havo haroratiga qarab boshlanishi va o'sishdan to'xtash fenologiyasi aniqlanib, tanlab olingan daraxtlarda o'sishning boshlanishi va birlamchi novdalarning hosil bo'lishi kuzatildi. 2014-2015 yillari introduksiya qilingan nav namunalari kompleks o'rganib, yakka tanlash o'tkazildi va yangi navlarni yaratish amalga oshirildi.

Ajratilgan nav namunalari orasidan serhosil, ertapishar, sovuqqa chidamli namunalari ajratildi. Ajratilgan namunalarga nom tanlanib, 2015 yili O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reyestriga topshirish ko'zda tutildi. Yangi navlarni o'sish, rivojlanish fazalari, hosildorligi, hosil sifati va ularni yetishtirish texnologiyasini sxemasi ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yuldasheva X.T. Zaytun yetishtirish agrotexnikasi. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnalining «Agro ilm» ilmiy ilovasi. – Toshkent, 2016. № 5 (43). – B. 50-51.
2. Yuldasheva X.T. Zaytun sovuqqa chidamlimi? // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. – Toshkent, 2014. № 11. – B. 24-25.
3. Yormatova D.Yo., Yuldasheva X.T. Zaytun poya va novdasining o'sish dinamikasi. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. – Toshkent, 2015. – № 7, – B. 40-41.
4. Yormatova D.Yo., Xushvaqtova X.S., Yuldasheva X.T. Zaytun o'simligi intraduksiyasi va yetishtirish agrotexnologiyasi. // Ekologiya xabarnomasi jurnali. – Toshkent, 2017. – № 1. – B. 24-25.
5. Yuldasheva X.T. Способы размножения оливкового растения в Андийской области. // Журнал Актуальные проблемы современной науки. – Москва, 2018. – № 6 (103). – S. 209-211.